

**ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF E-GOVERNMENT AND
INTERACTIVE GOVERNMENT SERVICES**

**¹Sadullayev Murodulla Lutfullayevich, ²Ismoilov Hamdam Rahmatillayevich, ³Normurodov
Sukhrob Tolqinovich**

Student of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy^{1,2,3}

murodullasadullayev@gmail.com¹, hamdamismoilov57@gmail.com², normurodovsuxrob17@gmail.com³

ANNOTATION

Today, information technology is entering every field. One such information technology is the concept of e-government. So what is e-government, why do we use it and for whom? In this article, we will learn what e-government is, how this system creates convenience and opportunities for the population.

Basic concepts: modern information and communication systems, e-government, e-government requirements, interactive services.

KIRISH

Hozirgi rivojlanayotgan davrda "elektron hukumat" tushunchasiga turli tarif va tavsiflar keltirilgan. Misol uchun ba'zi manbalarda elektron hukumatga davlat xizmatlarining masofaviy (online) taqdim etish jarayoni deb qaralsa, boshqa manbalarda elektron hukumat fuqaro, tadbirkor, davlat tashkilotlariga davlat xizmatlarini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish deya tavsif berilgan.

Umuman olganda, elektron hukumat bu – raqamli texnologiyalar, internet vositalari orqali fuqarolarga, tashkilot hamda muassasalarga, tadbirkor va biznesmenlarga davlat xizmatlarini taqdim etishning eng oson, tezkor va qulay yo'lidir. Elektron hukumat yordamida fuqarolar o'z-o'zini boshqarishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar hosil qiladi, texnologik yangiliklardan xabardorligini oshiradi hamda davlat boshqaruvidagi ishtirokini yanada qulaylashtiradi.

Metodikasi

Elektron hukumat davlat boshqaruvida elektron hujjat almashinuvini ta'minlaydi. O'z navbatida, elektron hujjat aylanishi bu – hujjatni skanerlab, uni elektron pochta orqali yuborish emasligini yodda tutish lozim.

Iqtisodiyotning turli soxalarini rivojlantirish va samaradorligini orttirish maqsadida, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish - bugungi zamon talabi bo'lgan dolzarb masaladir. Bunday sharoitda, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan nafaqat iqtisodiy sohalar, balki, ijtimoiy, siyosiy sohalar ham foydalanish, uni davlat va jamiyat munosabatlari hamda, fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qo'llaniladi.

Xususan, «Elektron hukumat» so'zi ko'pchilik o'ylagani singari, hukumat, ya'ni, davlat boshqaruvi tushunchasigagina ta'lluqli emas, balki kengroq ma'noda bo'lib, ya'ni, u – davlat boshqaruvi organlarining o'z xizmatlari va faoliyatini amalga oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishini nazarda tutadi. Hukumat organlari va davlat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini yanada orttirish; fuqarolarga va tadbirkorlarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini yangicha usulda, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali xizmat ko'rsatish elektron hukumatning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Elektron hukumatga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iboratdir:

- Fuqarolarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining yuqori sifat darajasida, tezkor ravishda, barchaga birdek standart asosida ko'rsatilishi;

- Davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda, fuqarolarning davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga oid axborotlar bilan uzluksiz ta'minlanishi;
- Hujjat soni va almashinuvi kabilardagi sarf-xarajatlar hamda vaqtni minimallashtirish. Faqatgina elektron hujjatlar almashinuv tizimini joriy qilishdir.

Ushbu talablarning amaliyotda o'z aksini topishi natijasida, davlat va jamiyat munosabatlarida, davlat boshqaruvi ichki tuzilmalarida quyidagicha samaradorlik va qulayliklarga erishish maqsad qilinadi:

Fuqarolarga va tadbirkorlarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarida samaradorlik ortadi, ya'ni, fuqaro davlat idorasiga ariza, shikoyat yoki taklif bilan to'g'ridan-to'g'ri, elektron shaklda murojaat etishi va javob olishi mumkin bo'ladi. Davlat xizmatlaridan foydalanishda tayyor hujjat shakllarini (blankalarni) onlayn to'ldirish va topshirish, zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni onlayn tarzda shakllantirib, yuklab olishi, chop etishi kabi interaktiv xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Qolaversa, elektron hujjat almashinuvi tufayli, qog'oz iste'moli qisqaradi, ya'ni qog'oz mahsuloti tejaladi; hujjat almashinuv tizimida vaqt tejaladi, ya'ni elektron hujjat axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali yuborilganda, mazkur hujjat shu lahzaning o'zidayoq belgilangan manzilda bo'ladi.

NATIJASI

Bugungi kunga kelib, elektron hukumatni yanada rivojlantirish uchun qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestri axborot tizimida amalga oshirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda; davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari va resurslarida qo'llanilishi majburiy bo'lgan elektron hukumatning yagona identifikatorlari, ma'lumotnomalar va tasniflagichlar ro'yxatlari axborot tizimida modernizatsiya qilinmoqda; davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish, kelgusida prognozlashtirish imkonini beruvchi Ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimini joriy qilish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlarini yanada rivojlantirish, fuqarolarimizning savodxonligini oshirish hamda ularga ushbu xizmatlardan foydalanishni yanada qulay qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- avvalambor, fuqarolarimizga elektron hukumat tushunchasi bo'yicha savodxonligini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari orqali ushbu tizimlarga oid turli xil medialar, vedioroliklar, reklamalar munatazam ravishda berib borish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- elektron hukumatga tegishli bo'lgan darslar to'plamini ishlab chiqish va bu darsliklarni maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun alohida darslik sifatida o'tish;
- aholiga yanada qulaylik yaratish uchun elektron hukumatning barcha xizmatlari mavjud bo'lgan telefonlar uchun soda va tushunish oson bo'lgan ilova ishlab chiqish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- "Elektron hukumat"ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda davlat ko'maklashishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumat tizimi davlatning yangi taraqqiyot bosqichlariga erishishida samarali vosita hisoblanadi. Ushbu tizim orqali mamlakatda axborot-kommunikatsiya tizimi yanada rivoj topadi. Yuqoridagi islohotlar amalga oshirilsa yurtimiz fuqarolari elektron hukumat tizimini yanada yaxshi va oson tushunadi, uzoq ovoragarchilik, qog'ozbozlik, vaqt yo'qotish kabi muammolardan xalos bo'ladi.

Shuningdek bu kabi elektron hukumat tizimlari, interaktiv davlat xizmatlarining yangicha sistemalarini ishlab chiqish orqali mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishdagi yangi bosqichlarini yuzaga chiqaradi.

Zero, elektron hukumat va interaktiv davlat xizmatlari aholining farovon hayoti uchun zarur bo'lgan asosiy manbalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Elektron tijorat asoslari" – Ravshan Hamdamovich Ayupov, Toshkent-2020
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portal.
3. Mtc.uz – O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining rasmiy sayti.